

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING AXLOQIY TARBIYASIDA SAHNALASHTIRISH FAOLIYATI MUHIM OMIL SIFATIDA

*Abdugapparova Hikoyatoy Anvar qizi
Toshkent davlat pedagogika Universiteti
Maktabgacha ta'lim fakulteti 303-guruh talabasi*

Annotatsiya: Shaxs tarbiyasida aynan maktabgacha ta'lim muhim ahamiyatni egallaydi, zero, “Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqshdir”. Buning ma’nosida nafaqat ta’lim, balki tarbiya omili ham yashiringan bo’lib, bolaning qanday yetuk shaxs bo’lishi ko’p tomonlama kichik yoshidagi tarbiyaga bog’liq. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sahnalashtirish faoliyati bolalarni ahloqiy tarbiyalashda muhim, chunki aynan badiiy asarlar orqali biz bolada yaxshilik va yomonlik, ezhgulik va yovuzlik kabi tushunchalalarni shakllantirishga erishamiz.

Maqolada bolalarni ahloqiy tarbiyalashd saxnalashtirish faoliyatining o’rni haqida gap boradi.

Kalit so‘zlar: Ahloq, saxnalashtirish faoliyati, inssenirovka, teatr, personaj, qobiliyat, syujetli –rolli.

Maktabgacha ta’limning vazifasi bolalarni xalqning boy milliy, madaniy tarixiy merosi va ma’naviy axloqiy jihatdan tarbiyalash: bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o‘qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta’lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o‘zining fikrini mustakil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog‘ligini ta’minlashdan iborat. Asosiy maqsadlardan yana biri sahnalashtirish san’ati orqali bolalardagi qobiliyat hamda imkoniyatlarni aniqlab, ularni to‘g‘ri shakllantirish va yuzaga chiqarishdir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sahnalashtirish faoliyati vositasida bolalarning estetik qobiliyatlarini shakllantirishda tarbiyachining o’rni beqiyos. U chuqur bilim va yuqori malakaga ega bo’lishi, buning uchun muntazzam ravishda o‘z ustida ishlashi, o‘zining ilmiy nazariy saviyasini tinimsiz ko’tarishi, ilg‘or tajribalarga tayanishi kerak. Davlat umummilliy dasturi ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, uni ham shaklan, ham mazmunan zamon talablariga moslashtirish, ta’lim sifat samaradorligini uzliksiz takomillashtirib borishga yo‘naltirildi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti mashg‘ulotlarida, maktabda muvaffaqiyatli o‘qib ketishlari uchun zarur bo‘lgan vazifalar hal etiladi. Shuningdek bu jarayonlarda bolalar jamoada ishlashga, o‘z harakatini o‘rtoqlarining harakatiga bo‘ysundirishga o‘rganadilar. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining sahnalashtirish faoliyati maktabgacha yoshdagagi bolalarni badiiy-estetik tarbiyalash hisoblanadi. Hozirgi kunda ma’lumki, teatrning bir necha

turlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Bulardan: komediya teatri, drama, xalq teatri, musiqali drama va komediya, opera, balet va qo'g'irchoq teatrлari shular jumlasidan hisoblanadi. Teatr- bu yunoncha (tiyation) so'zidan olingan bo'lib- tomoshaxona degan ma'noni anglatadi. Jajji kichkintoylarimizning sevimli tomoshasi bu - qo'g'irchoq teatridir. Bu teatr orqali bolalar o'zlariga yaqin va tanish bo'lgan o'yinchoqlarni, ayiqcha quyoncha, kuchukcha va boshqa qahramonlarni jonliligi, harakat qilish va gapirish bolalarni o'ziga rom etish. Bu teatr bolalarga katta xursandchilik va quvonch baxsh etish. Bu nafaqat ko'ngil ochish uchun, balki tarbiyaviy ma'nosiga ham qarash kerak. Bolalar bog'chasida katta va qiyin spektakllarni qo'yish mumkin emas. Kichik sahnali, kichik ertak asosida o'zlarining o'yinchoqlari yordamida qo'yishlari, mumkin. Bu kichik ko'rinishlarining har biri ham bolalarda katta taassurot uyg'otadi va bayram ertaklariga ko'tarinki ruh baxsh etadi. Har qanday badiiy asarni qo'g'irchoq teatri orqali ko'rsatilsa, bolalar uchun yanada tushunarli bo'ladi. Teatrni ko'rib bolalarning dunyoqarashi kengayib, xotirasida ancha vaqtgacha esda qoladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalarini qo'l mehnatiga o'rgatish qiziqish uyg'otish mehnat orqali hosil bo'lgan ko'nikma va malakalarni shakllantirish lozim. Sahnalashtirish faoliyati nutq ifodaliligin shakllantirish, intelektual va badiiy estetik tarbiya bilan bog'liq ko'plab pedagogik vazifalarni hal etish imkonini beradi. Sahnalashtirish faoliyati bolaning hissiyotlarini rivojlantirishning tiganmas manbasi hisoblanib uni ma'naviy boylikka oshno qiladi. Xalqimizning boy madaniy ma'naviy merosi haqida tushuncha va tasavvurga ega bo'ladi va ularni o'z ishlarida ifodalashga o'rganadi. Har bir insonning hayoti o'yinlar bilan o'tadi u bolada kattalarning hayotiy qonun qoidalarini anglashni o'rgatadi. Har bir bola o'zi bilgancha o'ynaydi, lekin bu o'yinlar asosan kattalar sevimli qahramonlaridan o'rganib ularga taqlid qilgan. Sahnalashtirish uchun material tanlaganda bolalarning yosh xususiyatlari bilim ko'nikmalaridan kelib chiqish zarur shu bilan birga ularning hayotiy tajribasini boyitish yangi bilimlarga qiziqish uyg'otish va ijodiy imkoniyatlar berish kerak. Rollarni faqat qobiliyatli bolalar o'rtasida taqsimlamay barcha bolalarga o'zlarini turli rollarda sinab ko'rishlariga imkon berish lozim. Sahnalashtirish faoliyati nutq ifodaliligin shakillantirish, intelektual va badiiy estetik tarbiya bilan bog'liq ko'plab pedagogik vazifalarni hal etish imkonini beradi. Sahnalashtirish faoliyati bolaning hissiyotlarini rivojlantirishning tiganmas manbasi hisoblanib uni ma'naviy boylikka oshno qiladi. Sahnalashtirilgan o'yinlarning ahamiyatli tomonlaridan biri shundaki, ular orqali bola badiiy obrazni idrok qila bilishni o'rganadi, personajlar hatti-harakatini kuzatish qobiliyatini rivojlanib boradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sahnalashtirish faoliyatini shakllantirish jarayonida hamkorlik shakllarini ham tavsiya etamiz. Hamkorlikdagi sahnalashtirish faoliyatida spektakl qo'yish jarayoniga yetarli darajada

faol bo'limgan bolalarni ham jalg etish, bu orqali ularda erkin fikrlay olish qobiliyatini, uyatchanlik va tortinchoqlik kabi odatlarini yo'qotishda sahnalashtirish faoliyati yordam beradi. Syujet - o'yin faoliyatida asosiy komponent bo'lib, u personajni, hayotiy vaziyatni, harakat va personajlar munosabatini o'z ichiga oladi. Syujetli-rolli o'yinlar o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra jamoa o'yini bo'lib hisoblansada, yakka holda o'ynalmaydi, degan fikrni keltirib chiqarmasligi kerak. Syujetli-rolli o'yinlar bolaning aqliy, axloqiy, jismoniy rivojlanishlarida muhim ahamiyat kasb etib, bunda bola ehtiyoji va malakasi tarbiyalanib, shakllanib, boyib yanada tasavvurlari kengayib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birligida barpo etamiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2016.
2. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T.: O'qituvchi. 1993.
3. Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna. Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyat o'rgatish. Darslik. "Metodist nashriyoti", 2023.
4. Qodirov M., Qodirova S. Qo'g'irchoq teatri tarixi. –T.: Talqin. 2006.
5. Khasanova, S., & Zufarova, L. (2023, June). DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE SKILLS IN PRE-SCHOOL CHILDREN THROUGH THEATER GAMES. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 1-5).
6. Khasanova, S. T., & Vasila, T. (2023, May). DEVELOPMENT OF IMAGINARY-CREATIVE COMPETENCES IN THE PROCESS OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR PROFESSION. In Next Scientists Conferences (pp. 84-91).
7. Sultansaidova, M. (2023). SOME ASPECTS OF PREPARING CHILDREN FOR SCHOOL. International Journal of Pedagogics, 3(02), 51-55.
8. Djamilova, N., Kim, I., Marasulova, D., Imamova, N., & Ismanova, G. (2022). Ecological Culture Development of Independent Learning, Creativity, Integrative Technology and Logical Thinking. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 2524-2529.
9. Djamilova, N. (2022). FACTORS AFFECTING THE DEVELOPMENT OF LIFE STRATEGIES IN STUDENTS. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(04), 187-191.
10. Djamilova, N., Isabekova, D., & Abduqodirova, O. (2023). DIRECTING PRESCHOOL CHILDREN TO PROFESSION AT THE EARLY AGE. *Science and innovation*, 2(B9), 500-507.9.
11. Imamova, N. Z., & Abdulhakimova, M. (2023). MAK TABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BAYRAM ERTALIKLARI ORQALI BOLALAR NI MAK TABGA TAYYORLASH MAZMUNI. *Science and innovation*, 2(Special Issue 4), 66-68.
12. Imamova, N. (2022). IMPORTANCE OF INDEPENDENT ACTIVITY AND CREATIVITY DEVELOPMENT IN TRAINING TEACHERS. *Science and Innovation*, 1(7), 676-679.
13. Imamova, N. Z. (2023, January). Methodology for developing creative qualities of future teachers in the process of independent training. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 86-90).
14. Muratova, M. (2022). MAK TABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA OTA-ONALAR NI TA'LIM TARBIYAVIY JARAYONDA FAOL ISHTIROKINI TA'MINLASHNING AMALIYOTDAGI HOLATI. *Science and innovation*, 1(B7), 1091-1096.